

DOI: <https://doi.org/10.5281/zenodo.17342093>

MINTAQALARDA RAQAMLI IQTISODIYOTNI BARQAROR RIVOJLANGANLIK HOLATI TAHLILI

Yusubov In'omjon Ikram o'g'li

Abu Rayhon Beruniy nomidagi Urganch davlat universiteti mustaqil izlanuvchisi, PhD, dotsent

Annotatsiya. Ushbu maqolada mintaqalarda raqamli iqtisodiyotni barqaror rivojlanganlikni jihatlari, mavjud imkoniyatlari va uning holati tahlili yoritilgan. Shuningdek, mintaqalarda raqamli iqtisodiyotni barqaror rivojlanganlik holati tahlilini samarali amalga oshirish yuzasidan taklif va tavsiyalar ishlab chiqilgan.

Kalit so'zlar. Mintaqa, iqtisodiyot, raqamli iqtisodiyot, barqaror rivojlanganlik, holat, tahlil.

I. KIRISH

Ma'lumki, raqamli iqtisodiyot mintaqalar rivojida muhim omil bo'lib hisoblanadi. Uning barqaror rivojlanishi esa iqtisodiy o'sish, raqobatbardoshlik hamda ijtimoiy farovonlikni ta'minlashda asosiy rol o'ynaydi. Tahlil natijalari shuni ko'rsatadiki, mintaqalar o'rtasida raqamli iqtisodiyotning rivojlanish darajasi sezilarli bir-biridan farq qiladi. Ya'ni, yirik shahar va sanoat markazlari raqamli infratuzilma, internet tarmoqlariga ulanish va raqamli xizmatlardan foydalanish bo'yicha yetakchilik qilayotgan bo'lsa-da, qishloq va chekka hududlarda ushbu ko'rsatkichlar pastroq ulushni tashkil etadi. Avvalo, barqaror rivojlanishni ta'minlash uchun mintaqalar iqtisodiyotining raqamlashtirilishini kengaytirish, raqamli savodxonlikni oshirish, investitsiyalarni jalb etish va raqamli infratuzilmani rivojlantirish zarur. Shuningdek, hukumat va xususiy sektor o'rtasida hamkorlikni mustahkamlash orqali raqamli innovatsiyalarni rag'batlantirish mumkin bo'ladi. Bu esa raqamli iqtisodiyotning mamlakatimizda iqtisodiy, ijtimoiy va ekologik jihatlari hisobga olgan holda barqaror rivojlanishiga xizmat qiladi.

Shuningdek, mamlakat raqamli iqtisodiyotni barqaror rivojlantirishda axborot texnologiyalari va kommunikatsiyalari sohasida bohqaruv tizimini yanada takomillashtirish, raqamli telekommunikatsiya xizmatlari ko'lamini kengaytirish va elektron davlat xizmatlari, telekommunikatsiya infratuzilmasini rivojlantirish, elektron davlat xizmatlarini kursatishning yaxlit tizimini yaratish, davlat organlarining axoli bilan muloqot qilishining yangi raqamli mexanizmlarini joriy etishga e'tibor qaratish zarurdir. Bu borada raqamli iqtisodiyot zamonaviy davlatlarning iqtisodiy taraqqiyotida muhim omil bo'lib hisoblanadi. Bugungi kunda raqamli texnologiyalar, internet infratuzilmasi va axborot-kommunikatsiya xizmatlari iqtisodiyotning barqaror o'sishi va innovatsiyalarni joriy etishda asosiy rolni o'ynaydi. O'zbekiston Respublikasi raqamli iqtisodiyotni rivojlantirishga katta e'tibor qaratib, hududlarda teng rivojlanishni ta'minlash maqsadida bir qator dasturlar va loyihalarni amalga oshirmoqda.

Mintaqalarda raqamli iqtisodiyotni barqaror rivojlantirish raqamli tizimini joriy etish raqamli iqtisodiyotni rivojlantirishning ajralmas tarkibiy qismi bo'lib, uning asosiy maqsadi raqamlashtirish va raqamli infratuzilmalarni soddalashtirish, aholi turmush sifatini oshirish, investitsiya va ishbilarmonlik muhitini yaxshilashga qaratilgan. Natijada, raqamli iqtisodiyot mintaqalar o'rtasidagi iqtisodiy tengsizlikni kamaytirishga, yangi ish o'rinlari yaratishga va innovatsion rivojlanishni qo'llab-quvvatlash uchun zarur bo'ladi. Shu bois, mintaqaviy siyosatni raqamli rivojlanish yo'nalishida ishlab chiqish va amalga oshirish bugungi kunning ustuvor vazifalaridan biridir. Buning uchun mintaqalarda raqamli iqtisodiyotni barqaror rivojlanganlik holati tahlilini amalga oshirish maqsadga muvofiq.

II. ADABIYOTLAR SHARHI

Raqamli iqtisodiyot barqaror rivojlanishning potensial katalizatori bo'lib hisoblanadi. Chunki, u samaradorlikni oshiradi va yangi imkoniyatlar yaratadi. Biroq, bu rivojlanish avtomatik ravishda barqaror bo'lmaydi. Bu borada barqaror raqamli iqtisodiyotga erishish uchun hukumatlar, biznes va ilmiy doiralar quyidagi ishlarni amalga oshirishi lozim:

- inklyuzivlikni ta'minlash: Raqamli savodxonlikni oshirish va barcha qatlamlarni texnologiyalardan foydalanishga jalb qilish.
- regulativ ehtiyotkorlik: Ma'lumotlar xavfsizligi, monopoliyaning oldini olish va mehnat munosabatlarini yangi sharoitlarga moslashtirish.
- yashil raqamlashtirish: Raqamli infratuzilmaning ekologik izini kamaytirishga qaratilgan siyosatlarni ishlab chiqish.

Shunday ekan, raqamli iqtisodiyotning barqaror holati muvozanatdir: yuqori iqtisodiy o'sishni ta'minlash, ijtimoiy adolatni saqlash va ekologik resurslarni tejashga qaratilgan ongli tanlovdir. Ushbu jihatlar bevosita mintaqalarda raqamli iqtisodiyotni barqaror rivojlanganlik holatini tahlil qilishga asoslanadi.

Mintaqalarda raqamli iqtisodiyotni barqaror rivojlanganlik jihatlari va uning holatini tahlil qilish yuzasidan tadqiqotlar olib borilgan. Xususan, tadqiqotlarga ko'ra, raqamli iqtisodiyotni barqaror rivojlanganlik jihatlari bevosita sanoatlashtirish va raqamlashtirish kabilarga asoslanadi. Aniqroq qilib aytganda, raqamli iqtisodiyot raqamli sanoatlashtirish va sanoat raqamlashtirishning keng qamrovli majmuini nazarda tutadi [1].

Boshqa bir tadqiqotlarda mintaqalarni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishda raqamlashtirish imkoniyatlari tadqiq qilinadi. Jumladan, raqamlashtirish iqtisodiyot qiyofasi va tuzilmasini o'zgartiradi, an'anaviy biznes modellarini o'zgartiradi, bozorlar va imkoniyatlarning kengayishiga, raqobatning kuchayishiga va alohida xo'jalik yurituvchi subyektlar va butun mamlakatlar o'rtasida raqobatbardoshlikning o'sishiga olib keladi [2].

Mintaqalarda raqamli iqtisodiyotni barqaror rivojlanganlik jihatlari va uning holatini tahlil qilishda turli davlatlar tajribalari qo'llanilmoqda. Bu boradagi tadqiqotlarga asosan, mutaxassislar raqamlashtirish bo'yicha yetakchi davlatlardan ortda qolishning turli sababini aniqlaganlar [3].

Tadqiqotlarda mintaqalarda raqamli iqtisodiyotni barqaror rivojlanganlik holati biznesni raqamlashtirish darajasiga asoslanishi qayd etiladi. Xususan, Rossiya bozorida biznesni raqamlashtirish darajasini tahlil qilish va xorijiy mamlakatlardagi kompaniyalarning raqamli transformatsiyasining rivojlanish sur'atlarini baholash mumkin [4].

Mavjud tajribalarda mintaqalarda raqamli iqtisodiyotni barqaror rivojlanganligi axborot texnologiyalari bozorida keng taraqqiy qilib boradi. Shunga asosan, tadqiqotlarda zamonaviy sharoitda Rossiya axborot texnologiyalari bozori, xususan, ulgurji korxonalar uchun ERP, CRM va RPA yechimlari korxonalarning raqamli transformatsiya strategiyalariga ta'sir ko'rsatishi mumkin bo'lgan nostandart rivojlanish tendensiyalarini namoyish etadi [5].

III. METODOLOGIYA

Mazkur tadqiqot ishini amalga oshirishda ilmiy tadqiqot metodologiyasida qo'llaniladigan turli usullardan foydalanildi. Xususan, ushbu tadqiqotda mintaqalarda raqamli iqtisodiyotni barqaror rivojlanganlik holati tahlilini amalga oshirish yuzasidan kuzatish, mantiqiy fikrlash, tarkibiy tahlil, qiyosiy tahlil, ilmiy abstraksiyalash, ma'lumotni guruhlash, analiz va sintez, induksiya va deduksiya, modellashtirish usullaridan keng foydalanildi.

IV. TAHLIL VA NATIJALAR

Raqamli iqtisodiyot real dunyoda uni quvvatlovchi infratuzilma va raqamli mahsulotlar va xizmatlardan foydalanish imkonini beruvchi qurilmalar orqali o'zini namoyon qiladi. Raqamli iqtisodiyotning qolgan qismi bitlarni yaratish, tashish, qayta ishlash va ko'rsatishning o'zaro bog'liq tizimidir. Asosiy infratuzilma raqamli iqtisodiyot bevosita raqamli quvvatni ishlab chiqaradi va uni tarmoqlar orqali tashiydi. Smartfonlar, noutbuklar va ish stoli kompyuterlari o'zlarining raqamli quvvatlarini ishlab chiqarish bilan birgalikda turli raqamli mahsulotlar va xizmatlarning ishlashini ta'minlaydigan yirik tarmoq infratuzilmasi sifatida raqamli infratuzilmaga kirish portallaridan iborat bo'ladi.

Raqamli infratuzilma ma'lumotlarni saqlash va qayta ishlash jarayonida raqamli quvvatni ishlab chiqaradi. Raqamli quvvat raqamli mahsulotlar va xizmatlarning ishlashiga imkon beradi. Tarmoqlar ma'lumotlarni qayta ishlash yoki namoyish qilish uchun tashiydi va ular raqamli iqtisodiyotning muhim qismidir. Raqamli infratuzilmaning o'zi jismoniy dunyo, atrof-muhit va raqamli dunyo o'rtasidagi bog'lanish nuqtasidir. Raqamli iqtisodiyotning atrof-muhitga ta'sirini ko'rib chiqish talab etiladi. Shu bois, raqamli infratuzilma, xususan, raqamli quvvatni ishlab chiqarish ta'sirini tushunish va hal qilishdan boshlanadi. Raqamli infratuzilma rivojlanib borar ekan, raqamli quvvatni ishlab chiqarishda ishtirok etuvchi har bir tomon alohida sanoatga aylandi. Bunda tarmoqlar har biri butun tizimning emas, ya'ni alohida qismlarining samaradorligi va atrof-muhitga ta'sirini o'lchaydi. Har bir qism "mumkin bo'lgan eng yaxshi samaradorlik" deb namoyon bo'ladi. Ammo, mavjud tizim sifatida qaralganda samarasizliklar paydo bo'ladi.

Raqamli iqtisodiyotni barqaror rivojlantirish borasidagi belgilab olingan asosiy vazifalar ijrosini ta'minlash, shuningdek, mamlakatimizda jamiyat rivojlanishi, aholi va ishlab chiqaruvchilar uchun qulay imkoniyatlar yaratish, byurokratik to'siqlardan holi samarali va ochiq raqamli davlat boshqaruvi tizimini rivojlantirish borasida ko'zlangan maqsadga erishish maqsadida iqtisodiyotning barcha sohalarini raqamli texnologiyalar asosida yangilashni nazarda tutadigan "raqamli iqtisodiyot" barqarorligini ta'minlashdagi vazifalar ishlab chiqilgan. Aynan, raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish orqali yalpi ichki mahsulot hajmini qo'shimcha foizlarga o'stirish imkoni mavjud. Bu borada mamlakatimizda axborot va aloqa sohasidagi xizmatlar ko'rsatilib kelinmoqda (1-jadval).

1-jadval

Mamlakatimizda 2010-2014-yillarda ko'rsatilgan axborot va aloqa sohasidagi xizmatlar hajmi, mlrd. so'mda [6]

№	Hududlar nomi	2010-y.	2012-y.	2014-y.	2016-y.	2018-y.	2020-y.	2022-y.	2024-y.
	O'zbekiston Respublikasi	2080.2	3219.3	4541.3	6306.8	10332.6	13852.3	24508.1	56812.1
1	Qoraqalpog'iston Respublikasi	37.0	123.2	192.4	249.9	344.6	383.1	555.7	978.1
2	Andijon viloyati	60.0	187.6	280.4	366.0	496.9	576.5	860.8	1410.2
3	Buxoro viloyati	39.9	127.9	199.1	261.2	375.8	419.0	628.3	979.7
4	Jizzax viloyati	26.7	76.4	113.8	147.4	205.0	244.7	406.4	696.2
5	Qashqadaryo viloyati	64.9	168.2	241.2	331.5	432.2	496.1	780.0	1364.9
6	Navoiy viloyati	29.9	84.5	124.3	159.7	217.9	251.6	364.9	674.5
7	Namangan viloyati	52.8	144.8	238.1	308.9	448.8	505.1	745.9	1181.8
8	Samarqand viloyati	66.6	198.5	306.4	410.7	620.3	716.9	1073.7	2002.3
9	Surxondaryo viloyati	55.6	121.1	185.8	258.7	346.0	388.7	609.9	1078.8
10	Sirdaryo viloyati	28.3	62.9	88.7	113.6	157.8	193.0	287.8	476.5
11	Toshkent viloyati	45.6	61.8	98.8	154.3	290.8	493.1	849.0	1817.1
12	Farg'ona viloyati	71.9	238.6	361.3	484.4	644.9	767.9	1165.3	2081.9
13	Xorazm viloyati	55.2	106.6	168.4	224.3	305.2	348.0	548.2	1102.2
14	Toshkent shahri	1445.4	1496.1	1942.3	2834.7	5443.2	8063.4	15617.2	40909.8

Mazkur 1-jadvalga asosan, O'zbekiston Respublikasida 2010-yilda 2080.2 mlrd.so'mni tashkil etgan bo'lsa-da, 2024-yilga kelib 56812.1 mlrd. so'mni tashkil etgan. Hududlar bo'yicha mos ravishda Qoraqalpog'iston Respublikasida 37 (978.1) mlrd.so'mni, Andijon viloyatida 60 (1410.2) mlrd.so'mni, Buxoro viloyatida 39.9 (979.7) mlrd.so'mni, Jizzax viloyatida 26.7 (696.2) mlrd.so'mni, Qashqadaryo viloyatida 64.9 (1364.9) mlrd.so'mni, Navoiy viloyatida 29.9 (674.5) mlrd.so'mni, Namangan viloyatida 52.8 (1181.8) mlrd.so'mni, Samarqand viloyatida 66.6 (2002.3) mlrd.so'mni, Surxondaryo viloyatida 55.6 (1078.8) mlrd.so'mni, Sirdaryo viloyatida 28.3 (476.5) mlrd.so'mni, Toshkent viloyatida 45.6 (1817.1) mlrd.so'mni, Farg'ona viloyatida 71.9 (2081.9) mlrd.so'mni, Xorazm viloyatida 55.2 (1102.2) mlrd.so'mni va Toshkent shahrida 1445.4 (40909.8) mlrd.so'mni tashkil etgan.

Shuningdek, mamlakatimizda ko'rsatilgan axborot va aloqa sohasidagi xizmatlarning o'sish sur'ati ko'rsatkichlari ham hisoblandi (2-jadval).

2-jadval

2010-2024-yillarda mamlakatimizda axborot va aloqa sohasidagi xizmatlarning o'sish sur'ati, % da [6]

№	Hududlar nomi	2010-y.	2012-y.	2014-y.	2016-y.	2018-y.	2020-y.	2022-y.	2024-y.
	O'zbekiston Respublikasi	130.5	123.6	127.6	114.6	115.9	123.8	128.8	127.5
1	Qoraqalpog'iston Respublikasi	124.3	115.8	132.6	106.1	105.4	107.8	120.5	118.7
2	Andijon viloyati	109.8	119.1	125.7	106.2	106.9	113.0	129.6	119.2
3	Buxoro viloyati	123.4	120.4	136.2	107.9	110.5	107.4	122.7	115.8
4	Jizzax viloyati	127.3	129.4	136.7	108.2	105.5	119.0	125.5	134.3
5	Qashqadaryo viloyati	154.5	135.0	128.8	110.5	108.1	111.6	127.0	118.1
6	Navoiy viloyati	117.5	118.5	137.8	107.8	107.3	112.5	126.2	124.6
7	Namangan viloyati	121.0	122.9	128.7	107.7	107.0	109.7	128.8	111.2
8	Samarqand viloyati	129.8	129.8	136.9	111.0	108.9	111.1	126.0	124.4
9	Surxondaryo viloyati	148.4	125.1	129.2	109.3	109.8	109.7	127.6	115.3
10	Sirdaryo viloyati	126.2	134.7	139.3	107.9	104.3	120.5	127.8	116.9
11	Toshkent viloyati	132.5	168.5	129.6	117.8	123.8	143.1	128.6	123.5
12	Farg'ona viloyati	121.3	117.6	122.3	110.4	109.5	114.9	126.2	115.3
13	Xorazm viloyati	137.8	125.2	136.9	108.5	106.8	112.7	128.4	140.6
14	Toshkent shahri	131.2	119.8	123.0	121.7	123.5	132.0	130.1	130.6

Mazkur 2-jadvalga asosan, O'zbekiston Respublikasida amalga oshirilgan axborot va aloqa sohasidagi xizmatlarning o'sish sur'ati 2016-yilda 130.5 foizni tashkil etgan bo'lsa-da, 2024-yilda 127.5 foizga yetgan. Ushbu ko'rsatkich hududlar bo'yicha mos ravishda Qoraqalpog'iston Respublikasida 124.3 va 118.7 foizni, Andijon viloyatida 109.8 va 119.2 foizni, Buxoro viloyatida 123.4 va 115.8 foizni, Jizzax viloyatida 127.3 va 134.3 foizni, Qashqadaryo viloyatida 154.5 va 118.1 foizni, Navoiy viloyatida 117.5 va 124.6 foizni, Namangan viloyatida 121,0 va 111.2 foizni, Samarqand viloyatida 129.8 va 124.4 foizni, Surxondaryo viloyatida 148.4 va 115.3

foizni, Sirdaryo viloyatida 126.2 va 116.9 foizni, Toshkent viloyatida 132.5 va 123.5 foizni, Farg'ona viloyatida 121.3 va 115.3 foizni, Xorazm viloyatida 137.8 va 140.6 foizni hamda Toshkent shahrida 131.2 va 130.6 foizni tashkil etgan.

Yuqorida tahlil qilib chiqilgan raqamlashtirish sohasidagi bir qator ko'rsatkichlar asosida respublika hududlarida raqamli iqtisodiyotni rivojlanganlik holatini baholash maqsadga muvofiq, deb hisoblaymiz. Buning uchun har bir hududni raqamli iqtisodiyotni rivojlanganlik holatini o'zida aks ettiruvchi ko'rsatkich (indeks) ishlab chiqish zarurati yuzaga keladi.

Mazkur indeksni ishlab chiqish uchun dastavval hudularning yuqorida tahlil qilingan ko'rsatkichlarni har birini normallashtirish zarur hisoblanadi. Chunki, ko'rsatkich bo'yicha oldinda yoki qaysidir ko'rsatkich bo'yicha ortda qolayotgan hududlar o'rtasida keskin farqlarni keltirib chiqarmasdan indeksni obyektiv hisoblashga imkon beradi.

Ko'rsatkichlarni normallashtirishda "Min - Max" normallashtirish formulasidan foydalaniladi, ya'ni:

$$X_{norm.qiyamat} = \frac{X - X_{min}}{X_{max} - X_{min}} \quad (1)$$

bu yerda:

$X_{norm.qiyamat}$ – X miqdorni normallashtirish yangi qiymati;

X – X miqdorning haqiqiy qiymati;

X_{min} - X miqdorning eng kichik qiymati;

X_{max} - X miqdorning eng katta qiymati.

Normallashtirish formulasi barcha ko'rsatkichlar qiymatlarini noldan va birgacha bo'lgan intervalda ifodalashga yordam beradigan statistik formuladir. Berilgan ko'rsatkichlarning eng kichik qiymatlari 0 eng katta qiymati esa 1 ga teng bo'lgan normallashtirish qiymatga ega bo'ladi. Boshqa qolgan barcha ko'rsatkichlarning normallashtirish qiymatlari 0 va 1 oralig'ida bo'ladi. Normallashtirish ko'rsatkichlardan foydalangan holda hamda PCA (principal component analysis) va varimax rotation (o'zgaruvchilarning umumiy dispersiyasidagi ulushini maksimal darajada oshirish) ekonometrik-statistik tahlil usullarini qo'llab respublika hududlarida raqamli iqtisodiyotni rivojlanganlik holatini o'zida aks ettiruvchi "raqamli iqtisodiyotni barqaror rivojlanganlik indeksi" ishlab chiqildi.

O'zbekiston hududlarini raqamli iqtisodiyotni barqaror rivojlanganlik darajasiga ko'ra tasniflashda raqamlashtirish sohasidagi bir qator ko'rsatkichlar asos qilib olindi. Ma'lumki statistika kursidan ma'lumki variatsion qatorlarni guruhlariga ajratishda "Sterdjess" formulasini qo'llash orqali olingan natijalar asosida hududlar guruhlariga ajratildi.

Hisob-kitob natijalariga ko'ra, tanlab olingan davr oralig'ida o'rtacha indeksning minimal qiymati 0,159 birlikni, maksimal qiymati esa 0,993 birlikni tashkil etgan. Hudularning "raqamli iqtisodiyotni barqaror rivojlanganlik indeksi" intervali 0,2 ga teng bo'lgan 4 guruhga ajratish lozimligi aniqlandi.

Birinchi guruh 0,993-0,759 qiymatga, ikkinchi guruh 0,759-0,559 qiymatga, uchinchi guruh 0,559-0,359 qiymatga va to'rtinchi guruh esa 0,359-0,159 qiymatga teng bo'lgan qiymatlarni qabul qilishi belgilab olindi (3-jadval).

3-jadval

O'zbekiston hududlarini raqamli iqtisodiyotni barqaror rivojlanganlik darajasi²⁰

Guruh raqami	Hududlar nomlari
1	Toshkent shahri
2	Farg'ona, Toshkent va Samarqand viloyatlari
3	Qoraqalpog'iston Respublikasi, Qashqadaryo, Andijon, Namangan, Xorazm, Navoiy va Buxoro viloyatlari
4	Sirdaryo, Jizzax va Surxondaryo viloyatlari

Ushbu 9-jadvalga asosan, O'zbekiston hududlarini raqamli iqtisodiyotni barqaror rivojlanganlik darajasi bir-biridan farq qiladi. Bizning fikrimizcha, yuqorida olib borilgan hisob-kitoblar natijasida respublika hududlarini raqamli iqtisodiyotni rivojlanganlik holatiga ushbu guruhlariga ajratish maqsadga muvofiq.

Shuningdek, biz raqamli iqtisodiyotni barqaror rivojlanish holati tahlilini quyidagi 5 ta indikator asosida tuzib chiqdik. Har bir hudud uchun **ballar yig'ilib**, ularning raqamli iqtisodiyotdagi rivojlanish darajasi baholandi (4-jadval).

4-jadval

Mamlakatimiz mintaqalarida raqamli iqtisodiyotni barqaror rivojlanish holatini tahlil qilish darajalari²¹

Indikatorlar	Toshkent shahri	Navoiy viloyati	Qashqadaryo viloyati
internet qamrovi	95 % (5 ball)	80 % (4 ball)	55 % (2 ball)
raqamli savodxonlik	90 % (5 ball)	70 % (4 ball)	40 % (3 ball)
elektron xizmatlar foydalanishi	85 % (5 ball)	60 % (4 ball)	35 % (2 ball)
raqamli infratuzilma	to'liq (5 ball)	4G+DSL (3 ball)	kam (2 ball)
IT kompaniyalar soni	juda ko'p (5 ball)	o'rtacha (3 ball)	juda kam (1 ball)

Mazkur 4-jadvalga asosan, Toshkent shahri hududi yuqori internet qamrovi, keng IT infratuzilma, ko'p sonli IT kompaniyalar, elektron xizmatlardan foydalanish darajasi yuqori va raqamli iqtisodiyot yuqori darajada rivojlangan darajaga ega. Navoiy viloyati hududi texnologik infratuzilma o'rtacha, IT kompaniyalar soni ozroq va elektron xizmatlarga kira olish mumkin, lekin foydalanish faolligi pastroq darajani tashkil etadi. Hamda, ushbu hududda yuqori darajada rivojlanmoqda, ammo to'liq raqamlashtirilmagan. Qashqadaryo viloyati hududi esa kam infratuzilma, kam IT kompaniyalar, raqamli xizmatlardan foydalanish past, savodxonlik o'rtacha, lekin texnologik bazasi yetarli emas hamda raqamli iqtisodiyot kam rivojlangan darajaga ega. Ammo, ayrim viloyatlarda, ayniqsa qishloq joylarda, internet infratuzilmasi,

²⁰ Muallif ishlanmasi.

²¹ Muallif ishlanmasi.

raqamli savodxonlik va raqamli xizmatlardan foydalanish darajasi pastligi kuzatilmoqda. Bu holat mintaqalar o'rtasida raqamli nomutanosiblikni keltirib chiqaradi va raqamli iqtisodiyotni barqaror rivojlantirish yo'lida to'siqlarga sabab bo'ladi. Shuning uchun, kelgusida raqamli iqtisodiyotning barqarorligini ta'minlash uchun barcha hududlarda infratuzilma rivojlanishini tezlashtirish, raqamli savodxonlikni oshirish, elektron xizmatlarga kirishni kengaytirish va IT sohasini qo'llab-quvvatlash muhimdir. Bu chora-tadbirlar mamlakat iqtisodiyotining barqaror o'sishi va raqamli transformatsiyasini muvaffaqiyatli amalga oshirishga xizmat qiladi.

V. XULOSA

Raqamli iqtisodiyot bugungi kunda mamlakatlarning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishida asosiy omillardan biriga aylangan. O'zbekiston Respublikasida ham raqamli iqtisodiyotni jadal rivojlantirish, hududiy tenglikni ta'minlash va axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan samarali foydalanish borasida izchil chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda. Bu borada O'zbekiston hududlari raqamli iqtisodiyotni barqaror rivojlanish darajasiga ko'ra bir nechta guruhlariga bo'linadi. Birinchi guruhga poytaxt Toshkent shahri va unga yaqin sanoat va iqtisodiy salohiyati yuqori hududlar kiradi. Ushbu hududlarda raqamli infratuzilma keng rivojlangan, internet xizmatlari va raqamli texnologiyalarni joriy etish darajasi yuqori bo'lib, ishlab chiqarish va xizmatlar sektori raqamlashtirilgan. Ikkinchi guruhda o'rtacha rivojlangan hududlar borki, ularda raqamli iqtisodiyotni joriy etish va barqarorlik ko'rsatkichlari o'rtacha darajaga ega. Bu hududlarda raqamli savodxonlikni oshirish va infratuzilmani yaxshilashga ehtiyoj mavjud. Uchinchi guruhga esa raqamli iqtisodiyotni rivojlantirishda orqada qolayotgan, asosan qishloq va chegaraviy hududlar kiradi.

Mazkur hududlarda raqamli texnologiyalarga kirish imkoniyatlari cheklangan, shuningdek, kadrlar salohiyati va investitsiya yetishmasligi barqaror rivojlanishga to'sqinlik qiladi. Shu bois, barqaror raqamli rivojlanishni ta'minlash uchun har bir guruhning xususiyatlari va ehtiyojlarini hisobga olgan holda mo'ljallangan strategiyalar ishlab chiqilishi zarur. Bu yo'nalishda raqamli infratuzilmani kengaytirish, ta'lim va kadrlar tayyorlash tizimini takomillashtirish hamda hududlararo raqamli tenglikni ta'minlash muhim ahamiyat kasb etadi. Natijada, hududlar o'rtasida raqamli iqtisodiyotni barqaror rivojlantirish darajasini oshirish orqali iqtisodiy o'sishni tizimli va samarali yo'lga qo'yish mumkin bo'ladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Huang J., Shen Y., Chen J., Zhou Y. Regional Digital Economy Development and Enterprise Productivity: A Study of the Chinese Yangtze River Delta. // *Regional Science Policy & Practice*, Volume 14, Supplement 2, November 2022. - p. 118-138.
2. Турсунов Н.Н. Цифровая экономика: особенности, тенденции и пути дальнейшего развития. // “Иқтисодийёт ва инновацион технологиялар” илмий электрон журналы, №5, сентябрь-октябрь, 2017. - с. 3.
3. Makhmudova G., Janizakova S. (2025). The importance of digitalization in ensuring the economic security of enterprises. // *Modern Science and Research*, 4(3), 987–1001.

Retrieved from <https://inlibrary.uz/index.php/science-research/article/view/73472>

4. Рубаева Л.М., Датиева А.А. Зарубежный опыт цифровой трансформации бизнеса. // Вестник университета, №2, 2022. - с. 146.

5. Мартынов Д.П., Гарнова В.Ю. Оценка и перспективы цифровизации управления бизнес-процессами на предприятиях оптовой торговли. // online scientific journal, Beneficium, 2024, 4(53). - с. 46.

6. <https://stat.uz/uz/rasmiy-statistika/services-2>